(7). Иванов Вяч. Вс., Топоров В.Н. Славянские языковые моделирующие семиотические системы. Москва, "Наука", 1965.
(8). Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. Москва, "Вост. лит.", 2006.
(9). Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. Автореферат дис. ... доктора филологических наук, Казан. гос. ун-т., Казань, 2003.
(10). Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. Москва, "Просвещение", 1979.
(11). Мельникова, Н.В. Психология личности взрослого и ребёнка с позиции этики. Москва, 2001.
(12). Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. Москва, "Наука", 1990.
(13). Пименова М.В. Душа и дух: особенности концептуализации. Кемерово, ИПК Графика, 2004.

Vohidova Nozima (O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetining mustaqil izlanuvchisi)

XORIJDAGI O'ZBEKLAR MUHITIDA MILLIY QADRIYATLAR MAVZUSINING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tobora rivojlanayotgan yangi medialar, xususan, fuqarolik jurnalistikasining o'ziga xos yo'nalishi sifatida ommalashib borayotgan blogosferalar tahlil qilinadi. Maqolada xorijdagi o'zbeklar tomonidan yuritilayotga n bloglar, ularda o'zbekona qadriyatlarning yoritilishi – milliy kontent sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *yangi media, internet, migratsiya, blogosfera, milliy kontent, inflyuyenser.*

МЕСТО ТЕМАТИКИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНЦЕВ, ЖИВУЩИХ ЗА РУБЕЖОМ

Аннотация. *В статье анализируются развивающиеся новые медиа, в частности блогосферы, которые набирают популярность как особенное направление гражданской журналистики. В статье рассматриваются блоги, которые ведут узбекистанцы за рубежом и в которых освещаются ценности, присущие узбекскому народу, как национальный контент.*

Ключевые слова: *новые медиа, интернет, миграция, блогосфера, национальный контент, инфлюенсер.*

THE PLACE OF NATIONAL VALUES IN THE BLOGOSPHERE OF UZBEK PEOPLE LIVING ABROAD

Annotation*. The article analyzes developing new media, in particular the blogosphere, which is gaining popularity as a special direction of citizen journalism. The article examines blogs that are run by Uzbeks abroad and which highlight the values inherent in the Uzbek people as national content.*

Keywords: *new media, internet, migration, blogosphere, national content, influencer.*

Kirish (Introduction). Bugun dunyoning turli mamlakatlarida vatandoshlarimiz ilm-hunar o'rganish maqsadida istiqomat qilishadi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining so'nggi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning 2,3 milliondan ortiq fuqarosi xorijda mehnat qilmoqda [1]. O'zga muhitda milliy o'zlik, g'urur, qadriyatlarni saqlab qolish va asrash, farzand tarbiyasida noyob sharqona fazilatlarni kamol toptirish, ona tili va ona-yurtga muhabbatni shakllantirish kabi maqsadlar ustivor turadi. Zero, "Ma'naviyat, ma'naviy kamolot salomatlikka eltadi, bil'aks ma'naviy qashshoqlik, inson nechog'lik moddiy jihatdan boy bo'lmasin, uni ruhiy tanazzul yoki kasalliklar sari yetaklaydi", deb yozadi tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Abdukarim Usmonxo'jayev [2]. So'z orqali ta'sir eng kuchli davo muolajasidir [3]. Mazkur jarayonda xorijdagi blogosferaning kontentlar orqali ta'siri tezkor, arzon va sifatlidir [4]. Sababi xorijdagi muhojirlar o'zlariga yot jamiyatga "moslashish" vazifasidan tashqari, o'zlikni davomiy saqlab qolish uchun kurashadilar. Ular ikki tomonlama bosimdan muvaffaqiyatli chiqib keta olishsa, ular o'zbekistonliklar ko'zida "vatanparvar" va "qahramon" siymosida gavdalanishadi. Natijada ular ma'lum bir ma'noda "inflyuyenser"ga aylanishadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Internet paydo bo'lishi bilan an'anaviy ommaviy axborot vositalari faoliyatida o'zgarishlar yuzaga keldi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar medialar orqali tarqalayotgan axborotlarning ommaga tez va oson yetib borishida ko'makchi bo'ldi. Talab va ehtiyojdan kelib chiqib, ilmiy va amaliy adabiyotlar yaratildi. Mavzu doirasida butun dunyo olimlari tomonidan fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

AQSH va G'arbiy Yevropa olimlari mavzu doirasida faol ravishda 90-yillardan beri shug'ullanmoqdalar. M.Kastels, J.Bodriyyar, P.Virilo, E.Toffler, S.Jijek, U.Eko, J.Gitomer kabi olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda internet, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar masalasi F.Mo'minova, X. Do'stmuhammad, F.Mo'minov, Y.Mamatova, D.Rashidova, N.Muratova, Sh.Qudratxo'ja, N.Qosimova, A.Matyakubov, G.Alimova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ammo milliy qadriyatlarning global tar-

moqda milliy kontent yaratish nuqtayi nazaridan filologik aspektda tadqiqi amalga oshirilmagan. Xorijdagi o‘zbeklar blogosferasida milliy qadriyatlarning o‘rni ilk marta ko‘rib chiqilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni o‘tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Germaniyada yashab, rivojlanayotgan o‘zbekistonliklarning umumiy soni 13,7 mingga yetgan [5]. Ular hayotini aks ettiruvchi “Germaniya hayoti” blogi muallifi Behruz Bozorov podkast tayyorlaydi. Facebook, Telegram kanallarini ham yuritadi. Instagram sahifasida ayni damda 320 ming obunachiga ega. Blog 3 oy ichida 100 ming auditoriyani o‘ziga jalb etdi. Buning asosiy sababi “oddiy o‘zbek”ning nemis jamiyati qirralarini “fosh” qila olishidir. Kontentlarining deyarli barchasida milliy ruh, milliy o‘zlikni anglashga chog‘lovchi nuqtalar bor. Hissiyot bilan insonlar qalbiga kirib boriladi. 2024-yil 16-iyulda “Kechir, ona” (...so‘zim asli ojiz, sening oldingda ona... Agar Xudo bir marhamat qilgan bo‘lsa, ishonchim komilki, u sendan bo‘lganimdir...) sarlavhasi ostida maxsus kontent joylashtirildi va 226 ming obunachi tomonidan ko‘rilib, unda 1567 ta izoh qoldirildi [6].

Ushbu postda milliy libosdagi, turli holatlardagi o‘zbek onasining 10 ta fotosurati joylashtirilgan. Har bir bir surat fonida muhojirning “Bilaman kechirasan... Bilaman, ona! Sen meni kechirgansan... Bilaman, 8 milliard odam ichida eng yomoni bo‘lsam ham, sen meni kechirasan... va faqat sengina menga olqish aytasan... Nega bunchalar qalbing mislsiz keng, Ona? Qaysi qilgan savobimga Seni menga berishgan, Ona?” tarzidagi qalb izhorlari yozilgan. Bloger musiqa tanlashga ham alohida e’tibor qaratadi va buni yuqori saviyada uddalaydi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, jurnalist, shoira Munavvara Usmonova she’riga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Yulduz Turdiyeva ijrosidagi “Ona, men keldim degin” qo‘shig‘i muhojirning aytolmagan nolalarini ohanglar orqali to‘ldiradi, nazdimizda, qo‘yilgan maqsadga erishiladi. Milliylikning talqini har bir detalda ko‘rinadi. Xorijdagi o‘zbekning o‘z onasiga bo‘lgan mehri va sog‘inchni boshqa insonga emas, aynan onasiga ifoda eta olgan. Bunda o‘zbek jamiyatida onaning roli, onalik darajasining kuchliligi namoyon bo‘ladi: “Onaginam! Oldingda eng gunohkori o‘zim. Eslaysanmi, 7-sinfda ko‘zimni ko‘kartirib, qonatib kelganim? Sinfdosh qizni himoya qilishni o‘ylabman-u, ammo sening yarimta yuragingni va tanamning eng nozik joyi ko‘zni qontalash qilib, sening umringni qisqartirib qo‘yishim mumkin ekanligini o‘ylamabman”... Bu kontent cheklanmagan auditoriya uchun mo‘ljallangan, chunki “ona” so‘zi har bir inson tarixida bor. Qolaversa, migrant holati odatda “noilojlik”, “imkonsizlik” tasvirini, ya’ni, istalgan paytda bora olmaslik, yaqinlari bilan ko‘risha olmaslik baryerini uyg‘otadi. Bu esa obunachilar qamrovini kengaytirgan va ularning turli holatdagi iqror, o‘kinch, alam va orzularini qondira olgan.

“Onaginam oldingda eng gunohkori o‘zim, oylikdan orttirib, bir so‘m-bir so‘m yig‘ilgan pulga olingan yangi mashinangni urganim, bilaman, kechirasan, nima qilsam ham kechirasan, “o‘g‘lim, qayerda bo‘lsang ham, baxtli bo‘l! O‘zim duo qilaman” deganingni, o‘shal alfoz aeroport ostonasida ko‘zlaring menga uzoq tikilib qolganing gunohi gardanimda... Sen onalar ichida eng mardisan”, degan satrlarida, ta’rifimizcha, “o‘zbekona” muhabbatning hosilasini ko‘rish mumkin. Bunda tarix, urf-odat, qadriyat, madaniyat va ma’rifat, donishmandlik, mas’uliyat, iqror, aql-zakovat, hurmat, e’zoz, e’tirof mujassam. Onaga qilingan iqrornoma qisqa daqiqalarda bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Xurshidbek shunday izoh qoldirgan: ”Hozir imtihondan chiqdim. 30 ta odam ichida eng yuqori balni oldim. Onamga aytsam, ko‘z yoshlarini tiya olmadilar. Ular qanday odam axir? O‘zlaridan ko‘p bizni o‘ylashadi”. Iroda Holboyeva “Biz ham musofirmiz. 11 yildan beri Amerikada yashaymiz. Lekin har 2–3 yilda bir boramiz. Oh... onajonim uchun bu yillar qanday o‘tgan ekan. Shu onda ketib qolgim keldi”. Bunday milliy kontentlar o‘quvchini o‘tayotgan umrini sarhisob qilib, ota-onaning holati, uning ichki kechinmalarini his qilishga, g‘amxo‘rlik qilishga imkonsizligi, ammo bu ishni tezroq qilishi shartligini ta’kidlaydi. Keksa ota-onaga qarash bizda qadriyat hisoblanadi va qon-qonimizga singib ketgan. Hatto, davlat qonunlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi “Oila, bolalar va yoshlar”, 80-moddasida “Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar” [7] deb keltiriladi. Zero, ota-onaga g‘amxo‘rlik qilish har bir kishining farzandlik burchi hisoblanadi. Nazarimizda, qomusdagi bu moddaning analogi yo‘q. Ota-ona duosini olish, naslning haqli davomchisi va oiladagi boshqa farzandlarga ibrat bo‘la olish kabi fazilatlar yozilmagan qonunlar sirasiga kiradi. Farzand tarbiyasi, aslida, oson, shunchaki ko‘rinadi, ammo tarbiyada yo‘l qo‘yilgan kichik xato, e’tiborsizlik katta muammolarni keltirib chiqaradi. Ota-onaning moddiy-ma’naviy qiynalishlari, ularning porloq kelajagi uchun kezi kelganda o‘z halovati, rohatidan voz kechganini anglagan, his qilgan bolagina shunday nomalarni bitadi. Aynan musofirda, ota-onadan olisda bu haqiqatni tushunib yetadi va izhorlarini ochiq-oydin bayon etadi. Tabiiyki, yurakdan chiqqan so‘zlar yuraklarni junbushga soladi. Izoh qoldirganlarning aksariyati ayni balog‘at yoshida-

gi bolalarni tarbiyalayotgan onalar ekanligi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Bugun farzand tarbiyasi jarayonida qiyinchiliklarga uchrayotgan ota-onalar uchun bu kabi kontentlar motivatsiya beradi, etalon vazifasini o‘taydi. To‘g‘ri yo‘ldan borayotganligiga ishonch paydo qiladi. Alalxusus, bunday tasavvurlar onalarda onalik mehr-muhabbatini oshiradi.

Kontentdagi ba’zi satrlarda ehtiros, balanparvoz so‘zlar oshib ketganday ko‘rinadi: “Mushtiparim... Medalli to‘kisim... 9 operatsiyaga chidagan to‘kisim... Bilaman, yig‘layapsan... Ishon men ham... Lekin, meni tushun va kechir... Chunki men bir xudbin Musofir... Kun kelib albat birlashamiz... Chunki sening duolaring ijobatini doim ko‘rganman... Yana bitta iltimosim bor: Xudoga ayt, meni kechirsin...”. Ona har qanday holatda bolasini kechiradi, kechira oladi. Bolalikdagi sho‘xliklar shirin xotira, xato yoki gunoh hisoblanmaydi. Ota-ona, qavm qarindoshlar, vatan sog‘inchi Behruz Bozorovni ehtirosga to‘lib, shunday satrlarni yozishga undagan. Ona yurtda yashayotganlarning iqrorlari fikrlarimizni tasdiqladi. Muhojirning ota-onasidan yiroqda, holatni yurak prizmalari orqali his qilib, dard-alam bilan yozganlari Vatanda yashayotganlarda ham xuddi shunday hislarni uyg‘ota olgan. Farida Sobirovna 77 “Bugun tug‘ilgan kunim edi... onamga aynan shunday mazmundagi gaplarni aytaman deb telefonla gaplashdimu bo‘g‘zimga bir nima tiqildi... Onalar yerdagi farishtalar”. Obunachilar tomonidan “Musofirlar maktubi” deb nomlangan kontent onalar uchun ham ibrat xati bo‘la olgan. Shohista Ismatova 90 “Bilasizmi nima? Bu post menga kuch berdi, xuddi sizday o‘g‘lim bor. Tarbiya qilolmayapman shekilli deb kecha rosa yig‘lagandim. Demak, kamida inshoolloh sizday farzand bo‘ladi”. Aynan vatandan olisda, ya’ni o‘zga qadriyat, urf-odat, an’analar og‘ushida yurt qadri bilinadi. Unga ehtiyoj orta boradi. Ko‘plab migrantlarda sog‘inch, hijron, hattoki, ona-yurtning bir cho‘pida ko‘zga to‘tiyo bo‘lgan bir paytda, bunday qalblarga taskin beruvchi, o‘zbekona milliy muhabbat bilan sug‘orilgan kontentlarga talab kuchaya boradi. Shu sabab kundan-kunga infoolamdagi bo‘shliq, kemtiklik ko‘rinib bormoqda. Uni sifatli, ommabop, manfaatli kontentlar bilan to‘ldirish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Agar o‘sha bo‘shliq puxta, ko‘ngillarga ezgulik olib kirib, ruhlantiruvchi manba, axborotlar bilan to‘ldirilmas ekan, masala o‘z yechimini topmaydi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz ona tilimiz sofligini saqlash, o‘zbekona qadriyatlarga sodiq qolish kabi milliy jihatlarni samimiyat bilan ko‘rsatadigan kontentlar tayyorlashayotgani ijobiy holat. “Germaniya hayoti” blogining asoschisi Behruz Bozorov tomonidan tayyorlangan “20 sekund sof o‘zbekcha” kontentini tahlilga olamiz. Xorijda yashab, o‘zbek tilini sofligini saqlash, tabiiyki, oson emas. 3 yildan buyon Germaniyada yashab kelayotgan, oilada tarbiya topayotgan 6 yoshli qizaloq kunining o‘rtacha 10 soatini nemis tili muhitida o‘tkazadi. Faqat kechki payt oila davrasida 2–3 soat o‘zbek tilida so‘zlashiladi. Ona tilida so‘zlashishga juda oz muddat qoladi, faol til o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ularga “Nemischa, ruscha qo‘shmay, sof o‘zbek tilida gapirsang, maxsus sovg‘a beriladi” degan vazifa yuklatiladi va bu ishtirokchi Behnusha Behro‘z qizi tomonidan bajariladi. Xatolar yumor bilan tushuntiriladi. Natijada qizaloq o‘zi istagan sovg‘a sohibasiga aylanadi. 240 000 marta ko‘rilgan va repost qilingan kontent ko‘plarga ibrat bo‘la oldi. Milliy rux-de profili egasi shunday yozadi “Ajoyib post. Biz ham uyda o‘zbekcha gaplashib, ona tilini ushlab qolishga harakat qilamiz. “Til – millat kaliti” deb bilganim sabab, qizimga o‘zbek tilini o‘rgatish bilan uni O‘zbekistonga oz bo‘lsa-da bog‘lashga, ona-yurtdan uzmaslikka harakat qilib kelyapman”. Sh.Jo‘rayeva: “Men o‘zbek tili va adabiyotidan dars beraman. Bolalarga o‘z tilini o‘rgatish juda qiyin, chunki ular anglamasdan, so‘zlarning asl ma’nosini bilmasdan gapirishadi. Ona tili tafakkur qilishga, o‘z xalqidek o‘ylashga, odamlar bilan muomalani to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi. Eng asosiysi, o‘zligini rivojlantiradi. Shunaqa tarbiyalashda davom eting. Siz to‘g‘ri yo‘ldasiz” deb yozadilar. 700 dan ziyod izohlar yozilgan bo‘lib, mulohazaga chorlovchi, tanqidiy, tavsiya tarzida berilgan fikrlardan iborat. Izoh yozuvchilarning aksariyati yosh ota-onalar. Ayniqsa, xorijda istiqomat qilayotganlar uchun bunday kontentlar juda zarur.

Ko‘p tillarni bilish bugunning dolzarb vazifalaridan, ammo o‘z ona tilini bilmay, o‘zga tilni o‘rganish qanchalar o‘rinli, degan savol tug‘iladi. O‘zbek ma’rifatparvar shoiri Avaz O‘tar “G‘ayri tilini sa’y qiling bilgali, yoshlar, lozim siza har tilni biluv ona tilidek” deb yozganida naqadar haq edi. Kuzatuvlar ko‘rsatadiki, ayrim ota-onalar farzandlarini rus sinflarida o‘qishini xohlashadi va “farzandim rus, ingliz tillarida bemalol gaplasha oladi” deb faxr bilan gapirishadi. Misol uchun, Kun.uz saytining 2024-yil 21-noyabrda “O‘zbeklar nega rus sinflariga boradi?” sarlavhasi ostida joylashtirilgan jurnalist Zuhra Abduraimovning maqolasida iqtisodchi Majid Sultonov shunday deydi: “O‘zim to‘liq o‘zbek oilasi farzandiman. Ikki bolamni ham rus bog‘chasi va sinfiga berganmiz. Chunki rus tilini rus maktabisiz o‘rganish juda qiyin, repetitor orqali o‘rganish og‘riqli. Xo‘sh, nega rus tilini bilish kerak deb o‘ylayman? O‘zbekistonda aksariyat tashkilotlar rus tilini bilishni talab qiladi. Talab qilmasa, rus tilini bilganlarni ko‘proq qadrlaydi. Bolalarni rus va ingliz tillarini bilishi yaxshi ishi uchun juda muhim” yoki o‘qituvchi Rayyona Ismatova “Ikki o‘g‘lim

rus bog‘cha va maktabiga boradi. Omillari; O‘zbekistonda ham rus tili davlat tilidan ko‘ra ancha ko‘p foydalaniladi. Hatto asosiy qonun hujjatlari “tepa”dan rus tilida tushishi haqida ko‘p davlat xizmatchilari aytib bergan. Biror joyga borsangiz, “o‘zbek tilini yaxshi bilasanmi?” deb so‘ramaydi, rus tilini bilish shartligi, boshqa xorij tillari uchun ustuvorlik berilishini aytishadi. Internetda ko‘plab kerakli resurslar, asosan, rus yoki ingliz tilida. Ma’lumotlarning 63,6 foizi ingliz tilida, 6,9 foizi rus tilida va ajablanarlisi 4 foizlik marra turk tiliniki. Eng og‘riqlisi shu–jamiyatimizda o‘zbek tilini bilishga nisbatan qandaydir uyalish kayfiyatining borligi. Nega bunday kayfiyat borligi haqida ko‘p o‘ylayman” [8], deb fikr bildiradi. Rus tilini bilish ish topish manbayi, rus tili prioritet, o‘zbek tilida ilmiy nashrlarning ozligi, rus hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilar sonining kamligi kabi masalalar sabab qilib ko‘rsatilmoqda. Tahlil jarayonida ayni saytdagi munozaradan misol keltirmoqchimiz. Tanganing ikkinchi tomoni, ya’ni, farzandlarini xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab va bog‘chalarda emas, aksincha, o‘zbek maktablarida o‘qitayotgan ota-onalarning fikrlarini keltirishni joiz deb bildik. Marketolog Sirojiddin To‘rabekov “O‘zbek tili maktablarigina bolaning o‘zbek bo‘lib tarbiya olishida, o‘zbek bo‘lib ulg‘ayishiga asos bo‘lishi mumkin. Hozir Toshkentcha hammayoq yoki o‘rischa, yoki arabcha, yoki inglizcha. Oxirgi ikki yilda izlab, o‘zbekona ruh beradigan, o‘zligini, tarixini va kimligini o‘qitib, tarbiya va ta’lim beradigan maktab topa olmadim. Ikki o‘g‘lim oxiri davlat maktabiga chiqdi. Bolalarimning 3000 yillar bu buyuk kengliklarda ot choptirgan ota-bobolari haqida to‘liq bilishi va o‘zini shu odamlarning avlodi deb katta bo‘lishi men uchun juda muhim” deya munosabat bildiradi. Bola ilk tarbiya, so‘zlashuvni oilada, ona tilida olsa, intellektual salohiyati ravnaq topadi, murakkab so‘zlarni tez o‘zlashtiradi, tahlil qilish qobiliyati o‘sadi. Milliy madaniyat, odob-axloq tushunchalarini aqlan anglaydi, tezroq his qiladi. Kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlashning eng qulay yo‘li ona tilida savod chiqarish hisoblanadi, chunki bola miyasining 80% uning 3 yoshiga qadar rivojlanadi [9]. Kuniga kamida 30 daqiqa kitob o‘qib berish, miya rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar kitob o‘z ona tilida o‘qib berilsa, uning natijasi ikki karra kuchli bo‘ladi.

Jurnalist Beruniy Alimov aytganidek, “4–5 yil Yaponiyada yashadik. Katta bo‘lguncha farzandlarim 8 ta maktab o‘zgartirishdi. Moskvada ham bir muddat yashadik. Uyda doimiy o‘zbek muhitini yaratishimizga qaramasdan, ular qandaydir uchinchi madaniyat bolalariga aylanib qolishganday tuyulardi. Umuman olganda, til o‘rganishni qo‘llab-quvvatlayman. Abu Rayhon Beruniy o‘z davrida 9 tilda gaplasha olgan... Bolalarimiz boshqa madaniyatga moslashib ketmasligi uchun ona tilida savod chiqarishi juda muhim” [10].

Ota-onalarning ba’zan “kelajak”ni o‘ylab ish tutishlari, kasbiy masalalar bo‘yicha migratsiyalar, zamon bilan hamnafas bo‘lish kabi “g‘oya”larni ilgari surishlari qator muammolarni keltirib chiqaradi. Afsuski, ular bu bilan bolada milliy g‘urur, ona vatanga muhabbat kabi qator noyob fazilatlarning shakllanishiga zarar yetkaziladi. Ona tilimizning qadr-qimmatini saqlab, uni kelajak avlodga yetkazish har birimizning milliy burchimizdir. Bunga globallashuv davrining eng tezkor vositasi – ijtimoiy tarmoqlarda milliy kontentlar, o‘zbekcha ma’lumotlar, ilmiy-amaliy o‘quv qo‘llanmalarni ko‘paytirish orqali erishiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, muayyan xalqning madaniy xususiyatlari, axloqiy va diniy qoidalarini bilishi boshqa xalqlar vakillariga nafaqat ma’lum bir etnik jamoaning mentalitetini tushunishga, balki millatlararo nizolar mohiyati va butun mamlakatdagi geosiyosiy vaziyatni obyektivroq tushunishga imkon beradi. Madaniy qadriyatlarni aks ettirish millatning “portretini” to‘liqroq ochib beradi va uning vakillariga xolis munosabatni shakllantiradi [11]. Xorijdagi vatandoshlarimiz, ayniqsa, milliy o‘zlikni asrab qolish, madaniyat va urf-odatlarni avlodlarga yetkazish uchun ijtimoiy tarmoqlardan maksimal foydalanishmoqda. Maqolada keltirilgan tahlillarga ko‘ra, milliy qadriyatlarga oid kontent his-tuyg‘ular va shaxsiy hikoyalar orqali keng omma e’tiborini qozonmoqda. Masalan, onaga bo‘lgan muhabbat va sog‘inchni ifodalagan postlar auditoriyada kuchli taassurot qoldirgan. Milliy liboslar, urf-odatlar, ona tili va qadriyatlarga bog‘liq hissiyotga kuchli ta’sir etuvchi materiallar keng auditoriyada hamdardlik uyg‘otishi bilan birga, milliylik ruhini kuchaytiradi. Xorijda istiqomat qilayotgan o‘zbeklarning ona tilini yodda saqlashi muhim vazifa hisoblanadi. Tahlillar natijalari asosida aytishimiz mumkinki, kontent yaratish jarayonida maqsadli auditoriya va ularning ehtiyojlarini tahlil qilish, har bir mavzudagi kontentning asosiy mezon va maqsadlarini belgilash, kontent vizual jihatdan jozibador va professional bo‘lishi muhim hisoblanadi. Milliy qadriyatlarni ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish nafaqat o‘z madaniyatimizni asrash, balki uning xalqaro darajada tan olinishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Узбекский мигрант приносит своей стране больше пользы, чем экспорт золота. //https://m.kun.uz/ru/news/2024/12/19/uzbekskiy-migrant-prinosit-svoyey-strane-bolshe-polzy-chem-eksport-zolota.

(2). Усмонхўжаев А. Дорисиз қалб давоси. Абдукарим Усмонхўжаев [масъул муҳаррир Азиз Қаюмов]. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2004.

(3). Козловская М.Л. Врач и больной. Слово как лечебный фактор. БМИК, 2014, № 5, URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vrach-i-bolnoy-slovo-kak-lechebnyy-faktor.

(4). Шилина М.Г. Медиатекст в интернете: теоретико-методологические подходы к исследованию [электронный ресурс]. Электронный архив Северо-Кавказского федерального университета, 2019, режим доступа: http://www.ncfu.ru/uploads/doc/shilina_konfmt.pdf

(5). Германия заключила соглашение с Узбекистаном в области миграции. // https://www.kommersant.ru/ doc/

(6). Behruz. Germaniya hayoti // https://www.instagram.com/germaniyahayoti/

(7). Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 14-боб, 80-модда. Тошкент, 2023, 40-бет.

(8). Абдуҳалимова З. Нега ўзбек ота-оналари боласини рус синфларига беради? https://kun.uz/kr/87727547.

(9). Устьян Н. Как развивается мозг ребенка: мифы и реальность. // https://kokoro.com.ua/ru/kak-razviva-etsya-mozg-rebenka-mify-i-realnost/

(10). Абдуҳалимова З. Нега ўзбек ота-оналари боласини рус синфларига беради?//https://kun.uz/kr/87727547.

(11). Рева Е. Проблемы этнокультуры и национально-ценностное ориентирование аудитории средствами массовой информации. Филологические науки в России и за рубежом, материалы междунар. заоч. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). Под общ. ред. Г.Д.Ахметовой. СПб., Реноме, 2012, с. 195–197.

Qobilova Maxfuza Sherali qizi (Profi University o‘qituvchisi, NDU doktaranti;
maxfuza.qobiova.98@gmail.com)

MEDIADISKURSNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mediadiskurs ommaviy kommunikatsiyaning o‘ziga xos shakli bo‘lib, jamoatchilik fikri va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U bosma nashrlar, televideniya, radio va raqamli platformalar kabi turli mediaturlarini o‘z ichiga oladi, har biri o‘ziga xos lingvistik va tuzilmaviy xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada mediadiskursning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilib, uning ommaviy foydalanish imkoniyati, bilvosita muloqot, bir tomonlama ta’sir va kommunikator hamda qabul qiluvchi o‘rtasida rollarning almashinmasligi kabi xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, mediadiskursning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga ta’siri tahlil qilinib, uning mafkuralarni shakllantirish, jamoatchilik fikrini yo‘naltirish va til qo‘llanilishiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Tadqiqotda, shuningdek, mediamatnlarida qo‘llaniladigan stilistik va ritorik uslublar, jumladan, sensatsionalizm, kadrlashtirish (framing) va ishontirish strategiyalari, auditoriyaning e’tiborini jalb qilish va axborotni talqin qilish jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Mediadiskursni anglash mediamazmunini tanqidiy tahlil qilish va uning zamonaviy jamiyatdagi kengroq ta’sirini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar*: mediadiskurs, ommaviy kommunikatsiya, lingvistik xususiyatlar, jamoatchilik fikri, kadrlashtirish, media ta’siri.*

ОСОБЕННОСТИ МЕДИАДИСКУРСА

Аннотация. *Медийный дискурс представляет собой особую форму коммуникации, играющую ключевую роль в формировании общественного восприятия и социальных ценностей. Он охватывает различные виды медиа, включая печатные издания, телевидение, радио и цифровые платформы, каждая из которых обладает уникальными лингвистическими и структурными особенностями. В данной статье рассматриваются особенности медийного дискурса, включая такие его характеристики, как массовая доступность, опосредованная коммуникация, однонаправленное влияние и невозможность обмена ролями между коммуникатором и реципиентом. Кроме того, анализируется влияние медийного дискурса на социальные, политические и культурные процессы, подчеркивается его роль в формировании идеологий, общественного мнения и языковых норм. В исследовании также рассматриваются стилистические и риторические приемы, используемые в медийных текстах, такие как сенсационность, фрейминг и стратегии убеждения, способствующие вовлечению аудитории и интерпретации информации. Понимание медийного дискурса имеет*